

AHOLINING MOLİYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA IJTIMOIIY TARMOQLARNING ROLI

Eshpulatova Muazzam Barnoevna
TDIU, tayanch doktorant

Annotatsiya

Raqamli asrda ijtimoiy media axborot va bilimlarni tarqatishda muhim rol o'ynaydi. Moliyaviy savodxonlik odamlarning iqtisodiy farovonligining asosiy omili bo'lib, ijtimoiy tarmoqlar sezilarli ta'sir ko'rsatadigan sohalardan biriga aylandi. Ushbu maqola ijtimoiy media odamlarning moliyaviy savodxonligini oshirishga qanday yordam berishi mumkinligini o'rganadi.

Kalit so'zlar: moliyaviy savodxonlik, ijtimoiy soha, PESTLE tahlili, tahdid, kibrxavfsizlik

Аннотация

В эпоху цифровых технологий социальные сети играют важную роль в распространении информации и знаний. Финансовая грамотность, являясь ключевым фактором экономического благополучия людей, стала одной из областей, где социальные сети оказывают значительное влияние. Эта статья исследует, как социальные сети могут способствовать повышению финансовой грамотности населения.

Ключевые слова: Финансовая грамотность, социальная сфера, анализ PESTLE, угрозы, кибербезопасность

Abstract

In the digital age, social media plays a vital role in disseminating information and knowledge. Financial literacy, being a key factor in people's economic well-being, has become one of the areas where social media has a significant impact. This article explores how social media can contribute to improving the financial literacy of the population.

Keywords: Financial literacy, social sphere, PESTLE analysis, threat, cyber security

KIRISH

Raqamli asrda ijtimoiy media axborot va bilimlarni tarqatishda muhim rol o'ynaydi. Moliyaviy savodxonlik odamlarning iqtisodiy farovonligining asosiy omili bo'lib, ijtimoiy tarmoqlar sezilarli ta'sir ko'rsatadigan sohalardan biriga aylandi. Aholi turmush farovonligiga ularning ijtimoiy-iqtisodiy ta'minlanganlik darajasi bilan bir qatorda moliyaviy savodxonligi darajasi ham katta tasir ko'rsatadi. Moliyaviy savodxonlik nafaqat fuqarolarga moliyaviy qarorlarni oqilona qabul qilish vositalarini beradi, balki iqtisodiy faollik va tadbirkorlikni rivojlantirishga yordam beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 2023-yil 27-fevral kuni bo'lib o'tgan tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar bo'yicha videoselektor yig'ilishida moliyaviy savodxonlikni oshirish masalasiga e'tibor qaratib, "Kambag'allikni kamaytirish oylik yoki nafaqa

miqdorini ko'paytirish, yoppasiga kredit berish, degani emas. Buning uchun, eng avvalo, aholini kasbga o'qitish, moliyaviy savodxonligini oshirish, odamlarda tadbirkorlik hissini uyg'otish, infratuzilmani yaxshilash, farzandlarini o'qitish, sifatli davolanish, manzilli nafaqa to'lash tizimini joriy qilish kerak", deb ta'kidladilar.

Darhaqiqat, hozirgi vaqtda dunyo miqyosida aholining moliyaviy savodxonligini oshirish yuqori ahamiyat kasb etadi. Bugungi moliyaviy muhit tobora murakkab va dinamik bo'lib, odamlar turli xil moliyaviy mahsulotlar, investitsiya imkoniyatlari va texnologiyalarga duch keladilar. Bu ularning o'z mablag'larini muvaffaqiyatli boshqarish va asosli qarorlar qabul qilish uchun moliyaviy jarayonlarni chuqur tushunishni talab qiladi. Ayniqsa, hozirgi vaqtda kuchayib borayotgan firibgarlikdan himoyalash va moliyaviy xatolarning oldini olishda moliyaviy savodxonlik yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy savodxonlikka ega shaxslar o'zlarini moliyaviy firibgarliklardan samaraliroq himoya qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ular potensial tahdid va yolg'onni o'z vaqtida anglash va unga kerakli choralarni ko'rsa, moliyaviy savodxonlikning etishmasligi natijasida jiddiy moliyaviy xatolarga, jumladan, ortiqcha qarzga, yomon jamg'armalarga va noto'g'ri aktivlarga sarmoya kiritishga olib kelishi ehtimoli yuqori bo'ladi. Bundan tashqari, yuqori darajadagi moliyaviy savodxonlik iqtisodiy rivojlanishga yordam beradi, chunki fuqarolar moliyaviy resurslardan yaxshiroq foydalanishlari, tadbirkorlikka sarmoya kiritishlari va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda aholi moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratilgan bir qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilib uning natijalar amaliyotga joriy etilib kelinmoqda. Bir qator mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan aholining moliyaviy savodxonligini taminlashning ilmiy metodik asoslari yaratilib ular keng omma e'tiboriga havola etilmoqda.

Jumladan uzoq xorijiy olimlardan[2][3][4], Bashirova M., Granilshikov A., Natrobina O., Ennamorato A., Lusardi A., Kolin K., Shon S., Robert Sh., Margaret M, va boshqalar, Tereza K., Oliviya M. va boshqalar o'zlarining ilmiy qarashlarida moliyaviy savodxonlikning ayrim masalalarini tdqiq etishgan.

Ennamorato A. va Lusardi A.lar moliyaviy savodxonlikka ta'lim dasturlarining shaxslarning xulq-atvori va farovonligiga ta'siri bo'yicha tadqiqot olib borishdi. Ular o'z asarlarida ta'limning inson hayotining turli davrlarida moliyaviy qarorlarga qanday ta'sir qilishiga e'tibor berishadi. Ularning natijalari shuni ko'rsatadiki, moliyaviy ta'lim dasturlarini erta amalga oshirish balog'at yoshidagi moliyaviy ko'nikmalarni sezilarli darajada yaxshilashi mumkin.

Kempbell va Spayser ijtimoiy-iqtisodiy holat moliyaviy savodxonlikka qanday ta'sir qilishini o'rganishadi. Ularning ishi katta aholi ma'lumotlarini tahlil qilishni o'z ichiga oladi va noqulay hududlarda moliyaviy ta'limga kamroq kirish moliyaviy xabardorlik darajasining pasayishiga va moliyaviy qarorlarning yomonlashishiga olib kelishini ko'rsatadi.

Shiller moliyaviy qarorlar qabul qilishning psixologik jihatlarini o'rganadi. U ishida ko'pincha xulq-atvor iqtisodiyotidagi irratsionallik mavzusiga to'xtalib o'tadi.

Moliyaviy xulq-atvorning psixologik jihatlarini, masalan, idrok etish va haddan tashqari o'ziga ishonchni ko'zda tutuvchi ta'lim dasturlari muhimligini ta'kidlaydi.

Miller va uning hamkasblari turli mamlakatlarda moliyaviy ta'lim samaradorligini baholash bo'yicha keng ko'lamli xalqaro tadqiqot o'tkazdilar. Ular hatto qisqa muddatli ta'lim tadbirlari ham moliyaviy savodxonlik darajasini sezilarli darajada, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda yaxshilashi mumkinligini aniqladilar.

Kusiardo va Mitchellning tadqiqotlari moliyaviy ta'limning nafaqaxo'rlarning xulq-atvori va moliyaviy barqarorligiga uzoq muddatli ta'sirini baholaydi. Ularning ta'kidlashicha, erta hayotda olingan ta'lim keyingi hayotda moliyaviy xatti-harakatlarga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ushbu tadqiqotlar moliyaviy savodxonlik ko'p qirrali hodisa ekanligini, jumladan, yosh, ijtimoiy-iqtisodiy holat, ta'lim va psixologik jihatlariga bog'liqligini ta'kidlaydi. Ta'lim dasturlari maksimal samaraga erishish uchun aholining turli guruhlariga ehtiyojlariga moslashtirilgan bo'lishi lozim.

Mahalliy olimlar[5][6][7][8] tomonidan ham moliyaviy savodxonlikni oshirishning muhim jihatlari keng tadqiq etilib kelin moqda, jumladan Dusmuxamedov O. S., Xojaev A., Akramova Sh.G. Hakimov O.M. kabi mahalliy olimlar o'zlarining ilmiy qarashlari orqali aholi moliyaviy savodxonligini oshirishning turli yo'nalishlarini taklif etishgan

METODOLOGIYA

Tadqiqot turli manbalar, jumladan, ilmiy maqolalar, tashkiliy hisobotlar va tahliliy ma'lumotlar tahliliga asoslangan. Sifatli va miqdoriy tadqiqot usullari, jumladan, ijtimoiy media postlarining kontent tahlili va ularning moliyaviy xabardorlik darajasini baholash uchun foydalanuvchi so'rovlari qo'llanildi.

PESTLE ijtimoiy modelidan foydalanish O'zbekiston aholisining moliyaviy savodxonligini tekshirish va oshirishga ta'sir etuvchi asosiy tashqi omillarni aniqlash imkonini beradi. Bu siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik, huquqiy va ekologik jihatlarini hisobga olgan holda yanada samarali strategiya va dasturlarni ishlab chiqish imkonini beradi, bu esa aholining moliyaviy savodxonligi darajasini oshirishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ijtimoiy tarmoqlarning o'sishi muhim global tendensiya bo'lib qolmoqda. 2023-yilda dunyo bo'ylab taxminan 4,95 milliard ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi bo'lgan, bu o'tgan yilga nisbatan 7,07 foizga ko'pdir. Bu o'sish kengroq tendensiyaning bir qismi bo'lib, 2015 yildan beri ijtimoiy media foydalanuvchilari soni ikki baravar ko'paydi.

Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish turli mintaqalarda juda farq qiladi. Misol uchun, 2024 yil boshida Shimoliy Yevropa ijtimoiy tarmoqlarning eng yuqori kirib borish darajasini 82% atrofida ko'rsatdi, undan keyin G'arbiy Yevropa va Janubiy Yevropa. Aksincha, Sharqiy va O'rta Afrika kabi mintaqalar eng past kirish ko'rsatkichlarini ko'rsatdi, ularning aholisining atigi 10% ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadi[9].

Ijtimoiy media platformalarida o'tkaziladigan o'rtacha vaqt ham o'sishda davom etmoqda. 2023-yilda foydalanuvchilar kuniga 2,5 soatdan ortiq vaqtlarini turli platformalarda o'tkazishdi, YouTube va Facebook sarflangan vaqt bo'yicha eng ko'p foydalanilgan[10]. Bundan tashqari, platformalar turli demografik guruhlar orasida turli o'sishni ko'rmoqda. Masalan, TikTok-dan biznes foydalanuvchilari orasida foydalanish sezilarli darajada oshdi va bu uni eng tez rivojlanayotgan ijtimoiy media kanallaridan biriga aylantirdi.

Har bir platforma o'ziga xos demografik tendensiyalarni ham ko'rsatadi. Misol uchun, Instagram va Snapchat kabi platformalar nisbatan muvozanatli gender taqsimotiga ega, LinkedIn va YouTube esa erkaklar ustunligini ko'rsatadi[11]. Bu turli foydalanuvchilar guruhlari bo'ylab turli ijtimoiy tarmoqlarning turli jozibadorligi va foydaliligini aks ettiradi.

Ushbu dinamik o'sish va foydalanish sxemasi global aloqa va marketing strategiyalarida ijtimoiy medianing keng tarqalgan va rivojlanayotgan rolini ta'kidlaydi.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilar soni sezilarli darajada oshdi. Masalan, 2021 yildan 2022 yilgacha O'zbekistonda ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari soni 1,7 million kishiga ko'payib, 35,9 foizga oshgan[12].

2024-yilda O'zbekistonda Instagram foydalanuvchilarining umumiy soni 9,43 million kishiga etdi, bu mamlakat aholisining 27,2 foizini tashkil qiladi. Instagram foydalanuvchilarining aksariyati erkaklar (61,9%). Foydalanuvchilar orasida eng katta yosh guruhi 18 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan odamlar bo'lib, 3,9 million foydalanuvchini tashkil etadi[13].

Facebookga kelsak, 2024-yil boshida uning O'zbekistondagi auditoriyasi jami aholining 6,1 foizini tashkil etgan, Instagram'da reklama ko'rish imkoniyatiga ega bo'lgan foydalanuvchilar ulushi 2023-yil yanvaridan 2024-yil yanvarigacha 10,7 foizga oshgan[14].

Bu ma'lumotlar O'zbekistonda ijtimoiy tarmoqlarning aloqa va marketing vositasi sifatidagi ahamiyatini ta'kidlab, ularning mamlakat ijtimoiy va iqtisodiy hayotiga ta'siri kuchayib borayotganini aks ettiradi.

Siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik, huquqiy va ekologik omillarni o'z ichiga olgan PESTLE ijtimoiy modelidan foydalangan holda O'zbekiston aholisining moliyaviy savodxonligini oshirishda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish holatini tahlil etamiz.

Siyosiy omillar

Hukumat dasturlari va qo'llab-quvvatlash nuqtayi nazardan, O'zbekistonda O'zbekiston Markaziy banki va boshqa davlat idoralari ko'magida aholi o'rtasida moliyaviy savodxonlikni oshirishga ko'maklashuvchi Milliy moliyaviy inklyuzivlik strategiyasi faol amalga oshirilmoqda. O'zbekistondagi Milliy moliyaviy inklyuzivlik strategiyasi moliyaviy savodxonlikni davlat va ta'lim sohasidagi tashabbuslarga integratsiyalashuviga yordam beradi. Bu moliyaviy ta'lim dasturlarini amalga oshirish va kengaytirish uchun qulay siyosat muhitini yaratadi.

Shuningdek, mamlakatdagi barqaror siyosiy muhit moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan ta'lim dasturlari va loyihalarini samarali amalga oshirishga

yordam beradi va bu ta'lim loyihalarini uzoq muddatli rejalashtirish va amalga oshirish imkoniyatlarini yaxshilaydi.

Siyosiy omillar	- Hukumat dasturlari va qo'llab-quvvatlash: - Siyosiy barqarorlik:
Iqtisodiy omillar (Iqtisodiy)	- Iqtisodiy rivojlanish darajasi - Ta'limga investitsiyalar:
Ijtimoiy omillar	- Demografiya: - Madaniy jihatlar:
Texnologik omillar	- Internetga kirish: - Mobil texnologiyalar:
Huquqiy omillar (Huquqiy)	- Tartibga solish va qonunchilik: - Ta'lim huquqlari:
Atrof-muhit omillari	- Infratuzilma va foydalanish imkoniyati: - Atrof-muhit barqarorligi:

1-rasm. Aholining moliyaviy savodxonligini oshirishda ijtimoiy tarmoqlarda foydalanishning PESTLE tahlili

Iqtisodiy omillar

Mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi aholining ta'lim va moliyaviy xizmatlardan foydalanishiga ta'sir qiladi. Kam daromadli hududlarda bunday xizmatlardan foydalanish etarli darajada emas, bu esa moliyaviy savodxonlikni oshirish uchun qo'shimcha harakatlarni talab qiladi.

Ta'lim dasturlari va moliyaviy savodxonlik tashabbuslariga davlat va xususiy investitsiyalar aholining xabardorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy omillar

Yosh va o'rta yoshli kattalar ijtimoiy tarmoqlardan tobora ko'proq foydalanmoqda va bu ularni moliyaviy savodxonlik bo'yicha ta'lim dasturlari uchun asosiy auditoriyaga aylantirmoqda.

Texnologik omillar

Internetning kirib borishi va undan foydalanish imkoniyati ijtimoiy tarmoqlardan ta'lim maqsadlarida foydalanishda asosiy rol o'ynaydi.

Mobil qurilmalarni ishlab chiqish va tarqatish ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilar sonining ko'payishiga va ta'lim mazmuniga kirish imkoniyatiga yordam beradi.

Huquqiy omillar

Ma'lumotlarni himoya qilish va onlayn faoliyatni tartibga solishga qaratilgan qonunchilik choralari moliyaviy savodxonlik dasturlarini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim va axborotdan foydalanish huquqlarini qo'llab-quvvatlovchi qonunchilik moliyaviy savodxonlikni oshirishga yordam beradi.

Atrof-muhit omillari

O'zbekistonning chekka va qishloq joylarida infratuzilma, jumladan, elektr va internetning mavjudligi ta'lim dasturlari va resurslaridan foydalanishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Atrof-muhit barqarorligi, raqamli ta'lim dasturlarini qabul qilish qog'oz va boshqa resurslar iste'molini kamaytirish orqali ekologik barqarorlikni rag'batlantiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlarga asoslangan holda quyidagi xulosalarga kelingan:

O'zbekistonda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish uchun ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish ta'lim tashkilotlari, davlat va xususiy sektor uchun o'ziga xos imkoniyatlar yaratadi. O'zbekistonda mobil qurilmalarning yuqori kirib borishi va ijtimoiy tarmoqlardan, ayniqsa, yoshlar o'rtasida faol foydalanilayotganini hisobga olsak, ushbu platformalar ta'lim dasturlarini tarqatishda muhim vositalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Moliyaviy savodxonlikni oshirish uchun ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish katta salohiyatga ega, ammo xavflarni minimallashtirish va foydani maksimal darajada oshirish uchun ehtiyotkor strategiyani talab qiladi.

O'zbekistondagi auditoriyaning demografik holati, qiziqishlari va ehtiyojlarini tushunish uchun muntazam tadqiqot olib borishni talab etadi va bu mamlakatda shaxsiylashtirilgan va samarali ta'lim mazmunini yaratish imkonini beradi.

Ijtimoiy tarmoqlar orqali taklif etilishi mumkin bo'lgan sertifikatlangan kurslarni yaratish uchun mamlakatdagi sohaga oid OTM va boshqa ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Bu taklif etilayotgan ta'lim mazmuniga qo'shimcha qiymat beradi va uning kasbiy rivojlanish uchun jozibadorligini oshiradi.

Ijtimoiy tarmoqlardagi ta'lim tashabbuslarining milliy moliyaviy inklyuzivlik va ta'lim strategiyalari bilan integratsiyalashuvini kuchaytirish ularning ahamiyati va hukumat darajasida qo'llab-quvvatlanishini kuchaytiradi.

Bu takliflar O'zbekistonda moliyaviy savodxonlikni oshirish uchun ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni yaxshilash va optimallashtirish, ta'lim sohasidagi sa'y-harakatlarni maqsadli, qamrab oluvchi va samaraliroq qilishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://uza.uz/uz/posts/tadbirkorlikni-rivozhlantirish-va-kasbga-tayyerlash-or-ali-k-27-02-2020>

2. Баширова М. Й. Методика анализа и моделирование финансовых ресурсов вуза 08.00.12, кандидат экономических наук 2002, Москва.;

3. Гранилищikov А. С. Источники финансирования высшего образования в России и их оптимизация 08.00.10, кандидат экономических наук 202, Москва.,

4. Натроби́на О. В. Совершенство́вание системы финанси́рования образова́ния [Электронный ресурс]: Дис. ... канд. экон. наук : 08.00.01 .-М.: РГБ, 2003
5. Dusmuxeamedov O. S., Aholi moliyaviy savodxonligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish (Tijorat banklari misolida);
6. Xojaev A. Oliy ta'lim muassasalarining aholi moliyaviy savodxonligini oshirishdagi o'rni va ularni amalga oshirish mexanizmlari. Prioritetniye napravleniya, sovremenniy tendensii i perspektivi razvitiya finansovogo rinka, 247–249.;
7. Akramova Sh.G. O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyot shakllanishi sharoitida inson kapitalini rivojlantirish. 08.00.10-Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti PhD ilmiy darajasi dissertatsiyasi/TDIU T; 2019;
8. Hakimov O.M. O'zbekistonda byudjet va to'lov – shartnoma shakllarida ta'lim berish tizimi samaradorligi (sotsiologik tahlil). Fan nomzodligi dissertatsiyasi / O'zMU T; 2010
9. <https://prioridata.com/data/>
10. <https://www.marketingscoop.com>
11. <https://prioridata.com/data/>
12. <https://datareportal.com>
13. https://napoleoncat.com/?utm_source=google&utm_medium=cpc&utm_campaign=worldwide_brand&utm_content=brand_exact_no_space&utm_term=napoleoncat&gad_source=1&gclid=Cj0KCQjwsaqzBhDdARIsAK2gqnfpD-r1yMGoFbK-ODOCS81w-KnFKIAVr43KkMgY6QWTUZJFIIDaaEIaArXQEALw_wcB
14. <https://datareportal.com>